
SOG'LOM HAYOT UCHUN 5 MING QADAM

Qo'shtepa tumani hokimligi hamda tuman Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi tashabbusi bilan "Qiyqi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida nuroniylar, yoshlar hamda korxonalar va tashkilot xodimlari ishtirokida karantin qoidalariga qat'iy amal qilgan xolda "5 ming qadam" shiori ostida piyoda yurish marafoni o'tkazildi.

Marafon oldidan keksalar va mahalla yoshlari o'rtasida davra suhbatlari olib borildi.



- Tongda piyoda sayr qilishda gap ko'p, lekin, ko'pchiligimiz bunga e'tibor bermaymiz - deydi, tadbirni kirish so'zi bilan ochgan Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi boshlig'ining o'rinbosari J.Karimov -Agar tongda yayov yurishni odat qilsangiz, toza havoda tanangiz yayrab, salomatligingiz mustahkamlanadi. Qarilik alomatlaridan biri muskullardagi yengil og'riqning chekinishiga ko'maklashadi. Shu bois biz nuroniylar uchun uyushtirilgan bu tashabbusni olqishlayman. Zero, bizning sog'lom va tetik bo'lishimiz joylardagi ijtimoiy muhit barqarorligida ham muhim o'ringa ega, degan fikrdaman.

Tadbirda ishtirok etgan Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi vakili R.To'rayev, viloyat Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash boshqarmasi tashkiliy bo'lim boshlig'i G'.Madraximov, bosh mutaxassis Yo.Tillaboyev, tuman hokimining o'rinbosari Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi boshlig'i Z.Kamilovlar ham tashkil etilgan ushbu marafon haqida o'zlarining iliq fikrlarini bildirdilar.



Shundan so'ng 100 nafardan ziyod sportsevar nuroniylar ishtirokidagi "5 ming qadam" marafoniga start berildi. Ushbu marafon kesa yoshli otaxonlar va yoshlar tomonidan ko'tarinki ruhda o'tkazildi.



Tadbir so'ngida marafonning faol ishtirokchilariga xomiylar tomonidan tayyorlangan esdalik sovg'alari topshirildi. Shuningdek, "Nurafshon" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Z.To'lqinova va "G'ishtmon" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi U.Ismoilovalarga nogironlik aravachasi berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-10-17 19:26:55